

ADABIY-TANQIDIY TAFAKKURNING YANGILANISHI (“MENDAN “MEN”GACHA” ASARI MISOLIDA)

Baxshilloeva Madina Ixtiyorovna

Osiyo xalqaro universiteti o‘zbek tili va adabiyoti magistri

Axmedova Shoiri Ne‘matovna

Ilmiy rahbar: Osiyo xalqaro universiteti proffessori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Nazar Eshonqulning adabiy-tanqidiy faoliyati, uning jahon va o‘zbek adabiy jarayoniga munosabati, badiiy tafakkur, modernistik yo‘nalishlar hamda ijod psixologiyasi haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Adibning “Ijod falsafasi”, “Mendan “men”gacha” kabi asarlarida ilgari surilgan adabiy yondashuvlar, shuningdek, jahon adabiyoti namoyandalariga bergan baholari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiy tanqid, modernizm, tafakkur, ijod psixologiyasi, badiiy talqin, jahon adabiyoti, ichki dunyo evolyutsiyasi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется литературно-критическая деятельность одного из крупнейших представителей современной узбекской литературы — Назара Эшонкула, его отношение к мировому и узбекскому литературному процессу, а также взгляды на художественное мышление, модернистские направления и психологию творчества. С научно-теоретической точки зрения рассматриваются литературные концепции, изложенные в его произведениях «Философия творчества» и «От меня к "Я"», а также его оценки творчества представителей мировой литературы.*

Ключевые слова: *литературная критика, модернизм, художественное мышление, психология творчества, художественная интерпретация, мировая литература, эволюция внутреннего мира.*

Abstract. *This article examines the literary-critical activity of Nazar Eshonqul, one of the leading representatives of contemporary Uzbek literature. It analyzes his*

views on the Uzbek and world literary processes, artistic thinking, modernist trends, and the psychology of creativity. The study also provides a scholarly and theoretical interpretation of the literary concepts presented in his works "The Philosophy of Creativity" and "From Me to the Self", as well as his critical assessments of prominent figures in world literature.

Keywords: *literary criticism, modernism, artistic thinking, psychology of creativity, artistic interpretation, world literature, evolution of the inner world.*

XX - XXI asr o'zbek adabiyotida adabiy tanqid nafaqat asarlarni baholash, balki badiiy tafakkurni falsafiy darajada tahlil qilish yo'nalishiga ko'tarildi. Bu jarayonda Nazar Eshonqul alohida o'rin egallaydi. U faqat yozuvchi emas, balki adabiy jarayonni chuqur tahlil qiluvchi, jahon adabiyoti bilan o'zbek adabiyotini qiyosiy o'rganadigan tanqidchi sifatida e'tirof etildi.

Adibning adabiy-tanqidiy qarashlari o'zbek adabiyotshunosligida yangi bosqichni boshlab berdi. U an'anaviy baholashdan ko'ra, asarning falsafiy, psixologik va estetik qatlamlarini ochib berishga e'tibor qaratadi. Nazar Eshonqul ijodiy qarashlarining shakllanishida jahon modern adabiyoti, xususan, Kafka, Joys, Prust, Kamyu kabi yozuvchilarning ta'siri seziladi. U adabiyotni hayotning oddiy tasviri emas, balki inson ruhiy olamini o'rganadigan murakkab tizim sifatida talqin qiladi. Adabiyotshunos Shoira Axmedovaning "Nazar Eshonqulning adabiy-tanqidiy qarashlarida adabiyotga munosabat" nomli maqolasida tanqidchi ijodi va adabiyot haqida quyidagi fikrlarni keltiradi. "Ijod zavqi" suhbatida esa adabiyotning ko'lamini insonni qay darajada tadqiq etganiga qarab belgilab kelinganini ta'kidlar ekan, adib Adabiyotning azaliy mavzusi — inson, — deb yozadi. Shu bilan birga adibni adabiyotning jamiyatda tutgan o'rni keyingi yigirma yillikda bir muncha pasayganligi tashvishga soladi, biroq u millatning ruhi, qalbi bo'lgan adabiyotsiz jamiyatni tasavvur ham qilolmaydi. Adabiyot inson mohiyatini o'rganar ekan, u bevosita falsafa va ilohiyot bilan birlashib ketadi. Adabiyotning dardi, iztirobi, og'rig'i falsafiy og'riq, ilohiy og'riq. Chunki insonning mohiyatini uning ko'ngli, ruhiyatini moddiy taraqqiyotlar to'la qondirolmaydi. Iste'dodli adibning adabiyot,

ijod haqidagi asosli mulohazalarini o‘qir ekan, kitobxon Adabiyotning sirli, sehrli olamini o‘zi uchun yana qaytadan kashf etgandek bo‘ladi. Yozuvchi ta’kidlaganidek, “Adabiyot yozuvchilarning “uyi”, mehrobi, unga gard yuqtirmaslik barchaning burchi” bo‘lishiga ishonch hosil qiladi.”¹

Adabiyotshunos olimaning mazkur fikrlari Nazar Eshonqulning adabiyot haqidagi adabiy qarashlarini ilmiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, adib uchun adabiyotning bosh mavzusi inson va uning ruhiy olami. Bu qarash Nazar Eshonqul asarlarining mazmun-mohiyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozuvchi insonning ichki kechinmalari, ma’naviy iztiroblari va o‘zlikni anglash jarayonini badiiy tadqiq etishga alohida e’tibor qaratadi. Adabiyotning falsafa va ilohiyot bilan uzviy bog‘liqligi haqidagi fikrlar ham adib ijodining konseptual asosini tashkil etadi. Chunki Nazar Eshonqul nazarida badiiy ijod inson mavjudligining ma’nosini anglash vositasidir. Shu bois uning asarlarida falsafiy mushohada, ramziy obrazlar muhim o‘rin egallaydi. Tanqidchining adabiyotning jamiyatdagi mavqei pasayib borayotgani haqidagi mulohazasi bugungi davr uchun ham dolzarbdir. Biroq adib adabiyotni millatning ma’naviy xotirasi va ruhiy tayanchi sifatida baholaydi. "Adabiyot yozuvchilarning mehrobi" degan qarash ijodkorning adabiyot oldidagi yuksak mas’uliyatini ifodalaydi. Ushbu fikrlar Nazar Eshonqulning adabiyotga faqat badiiy hodisa emas, balki ma’naviy va falsafiy qadriyat sifatida yondashishini ko‘rsatadi. Adib uchun tanqid — bu hukm chiqarish emas, balki asar ichiga kirib borish, uning ichki strukturasini ochish jarayonidir. Shu jihatdan u struktural va psixoanalitik yondashuvlarni uyg‘unlashtiradi. Nazar Eshonqul talqinida adabiy did shaxs va jamiyatning estetik tafakkurini, ma’naviy kamolotini hamda intellektual salohiyatini belgilovchi muhim mezon bo‘lib, u mutolaa madaniyati orqali millatning madaniy ong darajasini namoyon etuvchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Tanqidchi “Xurshid Davron” kutubxonasida Ayimxon Eshniyozova bilan bo‘lgan suhbatda adabiy did haqida quyidagi fikrlarini bildiradi. “Adabiy did ko‘p narsani belgilaydi. Millatning madaniy ongi va tafakkur

¹ Ҳозирги адабий жараён масалалари [Матн] / Нашрга тайёрловчилар Г.Сатторова ва бошқ.; – Тошкент: “Фан” нашриёт, 2022. 72-бет

darajasini belgilovchi barometr. Kimni o'qiyotganiga qarab shu millatga baho berish mumkin. Betinim ravishda ertak o'qiyotgan xalq, bu xalq ezgu, adolatli xalqdir, ammo bola tafakkuridagi xalq. Falsafa o'qiyotgan xalq dunyo qanday yaralgan, biz qanday yashayapmiz kabi savollarga javob o'qiyotgan, tafakkuri baland xalq bo'ladi.”² Nazar Eshonqulning mazkur fikri adabiy didning faqat estetik hodisa emas, balki millatning intellektual va ma'naviy taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon ekanini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, jamiyat mutolaa qilayotgan adabiyot turi xalqning tafakkur darajasi va dunyoqarashini namoyon etadi. Bu qarash kitobxonlik madaniyatining milliy ong hamda tafakkur rivojida o'rnini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu bois, yuksak badiiy va falsafiy adabiyotga murojaat qilish millatning ma'naviy kamoloti va intellektual yuksalishining muhim omili sifatida baholanadi.

Uning “Kitob bandasi”³ asarida adabiyot insonni tarbiyalovchi, uni ma'naviy poklikka yetaklovchi kuch sifatida talqin etiladi. Adib kitobni inson ruhining “ko'zgusi” deya baholaydi. Nazar Eshonqul adabiy-tanqidiy faoliyatining eng muhim jihati — jahon adabiyotini chuqur tahlil qilishidir. U o'zining “Mendan “men”gacha”⁴ asarida g'arbning mashhur yozuvchilar ijodini keng sharhlaydi, tahliliy fikrlar beradi. Frans Kafka, James Joys, Marsel Prust, Gabriel Garsia Markiz, Albert Jamus, Tomas Mann, Xuan Karlos Onetti, Robert Muzil, Ernest Xeminguey, Pablo Neruda kabi yozuvchilar shular jumlasidandir.

U Kafka ijodini tahlil qilar ekan, insonning jamiyat oldidagi ojizligi, absurd muhit va begonalashuv muammolarini asosiy mavzu sifatida ko'rsatadi. Eshonqul fikricha, Kafka asarlarida inson “tizim qarshisida yolg'iz mavjudot” sifatida namoyon bo'ladi. Joysning “Uliss” romani esa Eshonqul talqinida inson ongining eng chuqur qatlamlarini ochuvchi modernistik asar sifatida baholanadi. U romandagi ong oqimi uslubini adabiyotdagi inqilobiy hodisa deb hisoblaydi. Nazar Eshonqul adabiy tanqidida psixologik tahlil markaziy o'rinni egallaydi. U asardagi qahramon ruhiy

² <https://kh-davron.uz/tag/ayimxon-eshniyazova>

³ Nazar Eshonqul .Kitob bandasi. Toshkent: Akademnashr,-2022 yil.416 bet.

⁴ Эшонкул Назар. Мендан “мен”гача: адабий мақолалар тўплами / Н.Эшонкул.—Тошкент: Akademnashr,2014.512- 6.

holatini, ichki konfliktlarni, ong osti jarayonlarini chuqur tahlil qiladi. Prust ijodiga to'xtalib, xotira va vaqt kategoriyasini inson ruhiyati bilan bog'laydi. Uning fikricha, adabiyot insonning ichki vaqtini tasvirlaydi, ya'ni tashqi emas, balki subyektiv vaqt muhimdir. Shuningdek, Kamyu asarlaridagi absurd g'oya tanqidchi uchun inson hayotining falsafiy talqinini beradi. Kamyuning "Begona" romanini insonning ijtimoiy me'yorlardan uzilishining badiiy ifodasi sifatida sharhlaydi.

Yozuvchi o'zbek adabiyotini ham zamonaviy estetik mezonlar asosida tahlil qiladi. U an'anaviy realistik tasvirdan ko'ra, modernistik ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi. Uning fikricha, zamonaviy adabiyot–inson ruhiyatini chuqur ochishi, ramziy tafakkurga asoslanishi, falsafiy qatlamga ega bo'lishi kerak.

“Hayot va adabiyot bizdan chinakam iste'dodlarni talab qilmoqda. Chunki u bizning “men”imizga qarab ertangi kunini yaratadi. “Men”ga va shaxsga tashnalik bugun o'z ichimizni tozalash, poklash darajasiga yetdi. Bu kurash abadiy. “Men” ichki dunyoning to'liqligidir. Faqat bo'sh idishgagina xohlagan narsani solishingiz mumkin. Ichki bo'shliq ma'naviy tanazzul maydoni... O'z kuchiga va o'ziga ishonmaslikdan zaiflik paydo bo'ladi. «Men» shu ma'noda o'ziga ishonch hamdir”⁵ Adib o'zbek nasrida yangi yo'nalishlarni shakllantirishga harakat qiladi. Uning hikoya va romanlarida ham tanqidiy tafakkur kuchli seziladi. U “Ijod falsafasi” asarida ichki monologdan juda ko'p foydalanadi. Ayniqsa ong osti va insonning ruhiyati, psixikasi haqida chuqur falsafiy yondashadi. Faylasuf olimlarning adabiyot, inson haqidagi qarashlarni o'rganib ularni qiyoslaydi.”⁶ Ayniqsa,

Nazar Eshonqulning “Kitob bandasi” asari adabiy-tanqidiy qarashlarining yig'ma ifodasidir. Bu asarda: kitob va inson munosabati, adabiyotning ma'naviy vazifasi, ijod psixologiyasi, jahon adabiyoti tahlili kabi masalalar keng yoritiladi. Asarda muallif kitobni insonni ma'naviy tanazzuldan saqlovchi vosita sifatida ko'rsatadi. U

⁵ Назар Эшонкул. Ижод фалсафаси. “Мен”дан менгача–2. Тошкент, Академнашр. 2021, 12-13-бетлар.

⁶ BAXSHILLOYEVA MADINA. NAZAR ESHONQUL VA G'ARB ADABIYOTI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASI MATERIALLARI TO'PLAMI. FARG'ONA-2026, 416-bet.

zamonaviy texnokratik jamiyatda inson ruhining zaiflashuvi xavfi haqida ogohlantiradi.

Ijodkorning adabiy tanqidida modernizm asosiy metodologik poydevor hisoblanadi. U matnlararo aloqalarni (intertekstual bog‘liqlikni) keng tahlil qiladi. Masalan: Kafka va Eshonqul hikoyalari o‘rtasidagi ramziy yaqinlik, Joys va o‘zbek modern nasri o‘rtasidagi uslubiy o‘xshashlik, mifologik tafakkurning zamonaviy talqini kabi jihatlar uning ilmiy qarashlarida muhim o‘rin tutadi. Bugungi o‘zbek adabiyotshunosligida Eshonqul modern adabiy tafakkurni rivojlantirgan, jahon adabiyotini o‘zbek ilmiy muhitiga olib kirgan, badiiy matnni falsafiy darajada tahlil qilgan tanqidchi sifatida baholanadi. Uning yondashuvi an‘anaviy filologik tahlildan farqli ravishda, estetik-falsafiy sintezga asoslanadi. Olima Sanobar To‘laganovaning “XXI asr romanini Nazar Eshonqul yozsa kerak–adabiyotshunos” nomli maqolasida tanqidchining noyob mahorati haqida fikrlari bejiz keltirilmaydi.

“Badiiy asarning badiiy estetik qiymati nima bilan o‘lchanadi? Yoxud o‘lcham va mezonlar o‘zgardimi?.. Hayotning faqat qorong‘i tomonlarini ko‘rsatish insonni umiddan uzoqlashtirib qo‘ymaydimi? Nahot shunday katta iste’dod egasining shunchaki adabiy “oliftagarchilik” qilishi, murakkab tasvir, fikr ifodasining bo‘yoqdorligi va metaforaga to‘yingan talqinlari “atayin” tanlangan usulmi, ma’nosidagi so‘rovlar ortib ketadi va yangidan fikrlashga turtki beradi. Muallifning qotib ulgurgan adabiy ana’nalardan voz kechib yangi ijodiy qirg‘oqlarni kashf etishdan boshqa xizmati ham bormi, degan savol odamni ikkilantirardi. Bu savollarga yozuvchining publitsistik maqolalarini o‘qiganimdan so‘ng javob topganday bo‘ldim. Yozuvchi asarlarini goh tushunib, goh tushunmay yurgan paytimda Jabbor Eshonqul muallifning “Mendan “men”gacha” nomli kitobini sovg‘a qildi. Kitobning “Mendan “men”gacha” deb nomlanishi, ichki tartib, kompozitsion yaxlitlik – barchasini yozuvchi ijodida shakliy jihatdan yangilanishning o‘ziga xos namunasi deyish mumkin. Kitobni mutolaa qilgan o‘quvchi butunlay kutilmagan rakursdagi yondashuv usuli, jahon adabiyoti durdonalari bilan birga ulkan yozuvchilar hayoti, ularning ijodi bilan bog‘liq chuqur tahliliy maqolalar bilan tanishadi. Yozuvchining

mazkur maqolalarini o'qigan o'zbek kitobxoni o'zining qadrli, ma'rifatparvar, fidoiy olimini topganday bo'ladi. Nazar Eshonqul "Mendan "men" gacha"ni e'lon qilishi bilan kitobxonlar davrasiga bir qadar yaqinlashdi va, nazarimda, ularning "o'zinikiga" aylandi. Kitob o'zbek o'quvchisi uchun juda kerakli va zarur ma'rifiy qo'llanma vazifasini bajarishi bilan birga muallifning biz hali anglab yetmagan qirralarini namoyish qildi. Mazkur asar yozuvchining intellektual salohiyati va o'zbek adabiyotini jahon adabiyotining bir bo'lagi sifatida ko'rishi, dunyo e'tiboridagi ijodkorlar hayotini asarlari bilan parallel ravishda o'rganishi kabi jihatlari bilan estetik qiymat kasb etadi."⁷

Sanobar To'laganovanning Nazar Eshonqul ijodiga doir mulohazalari zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida muhim ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biri – yozuvchi estetik qarashlari va uning badiiy tafakkurini anglash muammosi bilan bog'liqdir. Muallif tomonidan ilgari surilgan fikrlar Nazar Eshonqul ijodining murakkab tabiati, badiiy tafakkurining ko'p qatlamliligi hamda adabiy jarayondagi o'rnini yoritishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, tadqiqotchining badiiy asarning estetik qiymati haqidagi savollari zamonaviy adabiyotshunoslikda dolzarb bo'lgan mezonlar masalasiga e'tiborni qaratadi.

Darhaqiqat, XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi adabiy jarayonlarda realizmning an'anaviy tamoyillari yangicha badiiy tafakkur, modernistik va postmodernistik izlanishlar bilan boyidi. Nazar Eshonqul ijodi aynan ana shu estetik yangilanishlarning o'zbek adabiyotidagi yorqin ko'rinishlaridan biridir. Uning asarlarida voqelikni to'g'ridan-to'g'ri tasvirlash emas, balki ramz, metafora, assotsiativ tafakkur va falsafiy umumlashtirishlar orqali ifodalash usuli ustuvorlik qiladi. Shu sababli yozuvchining ayrim asarlari dastlab o'quvchiga murakkab yoki mavhum tuyulishi tabiiy hol hisoblanadi. Yozuvchining "Mendan "men" gacha" kitobi uning badiiy va intellektual olamini tushunishda muhim manba vazifasini bajaradi. Kitobning nomlanishidayoq insonning o'zlikni anglash jarayoni, ma'naviy kamolot bosqichlari va ichki dunyo evolyutsiyasi mujassamlashgan. Bu jihat asarning konseptual yaxlitligini ta'minlab, uni oddiy maqolalar to'plamidan ko'ra kengroq

⁷ <https://oyina.uz/uz/article/888>

ma'naviy-falsafiy loyiha darajasiga ko'taradi. Tadqiqotchining kitob kompozitsiyasi va ichki tuzilishiga bergan bahosi ham ilmiy jihatdan asoslidir. Chunki Nazar Eshonqul maqolalarini muayyan g'oyaviy tizim asosida joylashtirgan bo'lib, ular birgalikda muallifning adabiyot, ijodkor shaxsi va insoniyat madaniyati haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Natijada kitobda shakl va mazmun uyg'unligi yuzaga kelgan.

Muallifning jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodiga bag'ishlangan maqolalari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Nazar Eshonqul ijodkor shaxsini uning asarlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladi. Bu esa biografik metod va qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyillarining samarali qo'llanganidan dalolat beradi. Yozuvchi jahon adabiyoti vakillarining hayoti, estetik qarashlari va badiiy olamini tahlil etish orqali o'zbek kitobxonining dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Nazar Eshonqul mazkur kitob orqali faqat badiiy ijodkor sifatida emas, balki adabiyot targ'ibotchisi va ma'rifatparvar sifatida ham namoyon bo'ladi. Uning maqolalari kitobxonni o'qishga, mushohada yuritishga va adabiy-estetik tafakkurni rivojlantirishga undaydi.

Tanqidchi san'atning asosiy vazifasini insonning ichki olamini anglash bilan bog'laydi. Uning fikricha, ijodkor tashqi voqelikni emas, balki uning inson qalbida aks etgan ruhiy va estetik mohiyatini tasvirlashi lozim. Shu bois adabiyot insonni o'z "meni"ni anglashga, botin dunyosini kashf etishga undovchi ma'naviy hodisa sifatida talqin etadi. "Olamning o'zini emas, ana shu ta'sirni, ana shu akslanishni, ana shu jarayondagi inson ruhini tasvirlash va ifodalash kerak... San'atning asosiy mezoni insonni o'z mohiyatiga qaytarishdir."⁸

Bu qarashlar yozuvchining "Mendan "men" gacha" kitobida ilgari surilgan tahliliy tamoyillar bilan hamohang bo'lib, uning adabiy-tanqidiy qarashlarining nazariy asoslarini tashkil etadi. Adibning jahon adabiyoti haqidagi tahlillari, modernistik yondashuvi va ruhiy tahlillari ilmiy merosini yanada qimmatli qila oldi.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning "Mendan "men" gacha" asari o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi ilmiy-adabiy manbalardan

⁸ Назар Эшонкул. Ижод фалсафаси. "Мен"дан менгача—2. Тошкент, Академнашр. 2021, 17-бет.

biri sifatida talqin etildi. Asar adib ijodining murakkab badiiy tabiati va uning o'zbek adabiyotidagi yangilovchilik o'rnini ochib berishda muhim ahamiyat kasb eta oldi. Bu esa yozuvchining nafaqat iste'dodli nosir, balki chuqur tafakkur egasi, adabiy jarayonni jahon adabiyoti doirasida talqin qila olgan yetuk adabiyotshunos ekanini tasdiqlaydi. Shu bois Nazar Eshonqul ijodi bugungi adabiy jarayonda ham dolzarb va ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazar Eshonqul . Kitob bandasi. Toshkent: Akademnashr,-2022 yil.416 bet.
2. Эшонқул Назар. Мендан “мен”гача: адабий мақолалар тўплами / Н.Эшонқул.—Тошкент: Akademnashr,2014.512 б.
- 3.Nazar Eshonqul.Ijod falsafasi.“Men”dan mengacha–2. Toshkent, Akademnashr.2021,17-bet
4. Ҳозирги адабий жараён масалалари [Матн] / Нашрга тайёрловчилар Г.Сатторова ва бошқ.;. – Тошкент: “Фан” нашриёт, 2022. – 200 бет.
5. BAXSHILLOYEVA MADINA. NAZAR ESHONQUL VA G'ARB ADABIYOTI.TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASI MATERIALLARI TO`PLAMI.FARG`ONA-2026,580-bet.
6. <https://oyina.uz/uz/article/888>.
7. <https://kh-davron.uz/tag/ayimxon-eshniyazova>